

GURUH RAHBARINING O'QUVCHILARNI O'RGANISHGA YO'NALTIRILGAN FAOLIYATI PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Toshev Jonibek Raxmatillayevich
Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada guruh rahbarining o'quvchilarni o'rganishga yo'naltirilgan faoliyati zamonaviy ta'lim jarayonida muhim pedagogik muammo sifatida ko'rib chiqiladi. O'quvchilar shaxsini har tomonlama o'rganish, ularning individual psixologik xususiyatlari, ijtimoiy holati, qiziqishlari va ehtiyojlarini aniqlash guruh rahbarining asosiy vazifalaridan biri sifatida tahlil qilinadi. Maqolada ushbu faoliyatni samarali tashkil etishning metodik asoslari, amaliy mexanizmlari va mavjud muammolari yoritilgan. Shuningdek, o'quvchilarni o'rganishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati ta'kidlanadi hamda guruh rahbari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.*

Kalit so'zlar: *guruh rahbari, o'quvchini o'rganish, pedagogik muammo, shaxsiy yondashuv, tarbiyaviy ishlar, psixologik-pedagogik tahlil, ta'lim jarayoni, ijtimoiy-psixologik rivojlanish, innovatsion yondashuv.*

KIRISH

Ta'lim-tarbiya jarayonida guruh rahbarining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, o'quvchilarni chuqur o'rganishga yo'naltirilgan faoliyat samarali pedagogik strategiya sifatida qaralmoqda. Zamonaviy ta'lim talablariga ko'ra, nafaqat bilim berish, balki har bir o'quvchining shaxsiy imkoniyatlari, ijtimoiy holati, qiziqishlari va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya ishlarini olib borish muhim hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, guruh rahbari o'z faoliyatini faqat nazorat va tashkilotchilik bilan cheklab qo'ymasdan, balki har bir o'quvchini chuqur tahlil qilish, u bilan yakka tartibda ishlash, ijtimoiy muhitini o'rganish kabi mas'uliyatli vazifalarni ham bajarishi lozim.

Bugungi kunda o'quvchilar bilan ishlashda yuzaga kelayotgan ayrim muammolar — masalan, individual yondashuvning yetishmasligi, tarbiyaviy ishlarda umumiy yondashuvning ustunligi, oilaviy holatlarning e'tibordan chetda qolishi kabi holatlar guruh rahbarining o'quvchini o'rganishga yo'naltirilgan faoliyatini chuqur o'rganishni pedagogik muammo sifatida ko'rib chiqishni taqozo etadi. Mazkur maqolada ana shu faoliyatning mazmuni, dolzarbligi, tashkil etish shakllari va samaradorligini oshirish yo'llari tahlil qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “ Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” asarlarida ham ustoz degan ulug' kasbning mas'uliyatli tomonlari , xalqimiz ustoz va murabbiylarimizga bo'lgan faxr tuyg'usi o'z aksini topgan. "... Bukilmas iroda fidoiyilik va jasorat namuhasini amalda namoyon etib, o'z hayotini aziz Vatanimizning har tomonlama ravnaq topishiga

bag'ishlagan ustoz va murabbiylarimiz, zamondoshlarimiz bilan cheksiz faxrlanamiz".¹ Tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq bo'lgan ikki faoliyatni o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'z ichiga oladi.

Tarbiya jarayonining asosiy natijasi-barkamol shaxsni shakllantirishdir. Bu jarayon ikki tomonlama bo'lib, uyushtirish va rahbarlikni, shuningdek, o'quvchi shaxsining o'zi tomonidan faollik ko'rsatilishini taqozo etadi.

Bu jarayonda guruh rahbari yetakchi rol o'ynaydi. Guruh rahbarining faoliyati ko'p qirrali va sarmazmundir. U o'zi rahbarlik qilayotgan guruh o'quvchilarini tarbiyalash bilan bir qatorda o'quv yili davomida nimalar qilish kerakligi, talabalar hayotining nima bilan band qilish va tanlangan ish turini amalga oshirishini bexato aniqlash kabi ancha murakkab muammoni yechadi. Bu borada guruh rahbariga turli xil manbalar yordam beradi. Guruh rahbarining ish faoliyatda «Talabalarni tarbiyalash ishining mazmuni» bo'lishi kerak. Chunonchi,

- dunyoqarash asoslarini tarkib toptirish
- siyosiy onglilikni tarbiyalash va ijtimoiy faoliyatni rivojlantirish,
- axloqli, ongli intizomni va xulq madaniyatini tarbiyalash;
- o'qishga ongli munosabatni tarbiyalash, bilish faolligini va aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish
- mehnatga va ijtimoiy mulkka munosabatni tarbiyalash, politexnika bilim doirasini kengaytirish, kasbni ongli tanlashga tayyorlash;
- o'z huquqini anglab yetishga o'rgatish, fuqarolik mas'uliyatini tarbiyalash;
- estetik madaniyat asoslarini tarbiyalash va badiiy qobiliyatni rivojlantirish;
- jismoniy barkamollik, salomatlikni, mustahkamlash va sanitariya-gigiyena madaniyati kabi muhim masalalar alohida qayd etiladi.

Guruh rahbarining pedagogik faoliyati va mahorati o'quv faoliyatida ham, o'qishdan tashqari faoliyatda ham zarur bo'lgan umumiy pedagogik malakalar majmuidan tashkil topadi. Avvalo, pedagogik texnikaning tarkibiy qismi sifatida pedagogning nutq malakalarini, ya'ni savodli gapirish, o'z fikr va his tuyg' ularini so'zda aniq ifodalash malakalari muhimdir.

Pedagogik texnikaning boshqa tarkibiy qismi guruh rahbarining mimik va pantomimik ifodaliligidir. Aniq imo - ishora, ma'noli qarash, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum pedagogik ta'sir ko'rsatishda ko'p so'zli tushuntirish yoki e'tiroz bildirishga qaraganda ancha samarali muomala vositalari bo'ladi. Pedagogik o'zaro ta'sir ko'rsatishda guruh rahbarining o'z hissiy holatini boshqarish, o'zida eng qulay hissiy jiddiylilik darajasini va umidbaxshlik, xayrixohlik kayfiyatini saqlash, o'zining hissiy dam olishini tashkil etish mahorati muhim rol o'ynaydi. Bu mahorat pedagogning kasbiy jihatdan o'z - o'zini nazorat qilishni ta'minlaydi.

Ko'p yillar davomida sog'lom asab sistemasini saqlab qolish, asabiy bo'ziliblardan, hissiy va aqliy zo'riqishdan o'zini tiyishga yordam beradi.²

¹ Abduraxmonov. A. Axloqiy tarbiya va milliy qadriyatlarimiz – Sharq yulduzi. 1990. №12-164-173-b.

² Pedagogika. // M. To'xtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. - T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.

Samarali o'zaro ta'sir ko'rsatishni tashkil etish uchun pedagog aktyorlik va rejissyorlik mahorati tarkibiy qismlarini egallashi zarur, ular pedagogga tarbiyalanuvchilar bilan muomala qilishda tarbiyalanuvchilarning aql - idokigagina emas, balki ularning his tuyg'ulariga ham ta'sir ko'rsatishga yordamlashadi.

Shunday qilib, guruh rahbarining pedagogik texnikasi - bu shunday bir malakalar yig'indisidirki, u guruh rahbariga tarbiyalanuvchilar ko'rib va eshitib turgan narsalar orqali ularga o'z fikrlari va qalbini etkazish imkonini beradi.

A.S.Makarenko shularni nazarda tutib, «Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahldor bo'lishini bilishi lozim, u o'zini shunday tutishi kerakki, uning har biri harakati tarbiyalasin», deb yozgan edi. Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo'llari pedagog rahbarligidagi mashg'ulotlar (pedagogik texnikani o'rganish) va mustaqil ishlash (kasbiy jihatdan o'z - o'zini tarbiyalash) dir. Pedagogik texnika malakalarining individual - shaxsiy tusda ekanligini hisobga olib, pedagogik texnikani egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o'z - o'zini tarbiyalash, ya'ni talabaning o'zida mohir pedagog shaxsiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat etakchi rol o'ynaydi, deb aytish mumkin. Pedagogik texnik malakalarini shakllantirishda jamoaviy ish olib borish alohida rol o'ynaydi. Pedagogik texnik mashg' ulotlarining bu shaklini batafsilroq ochib berish maqsadga muvofiqdir, chunki u hozirga qadar pedagoglar uchun mo'ljallangan o'quv va metodik adabiyotlarda lozim darajada ko'rsatib berilmagan. Guruh shaxsning o'z - o'zini bilish va o'z - o'zini tarbiyalash laboratoriyasi, pedagogik vazifalarni hal qilishning yangi usullari tekshirib ko'riladigan, nazariy masalalar muhokama qilinadigan tajriba maydoni bo'lib qolishi mumkin.³

Shu narsa muhimki, guruh qatnashchilari, bo'lajak pedagoglar kasbiy jihatdan birga ishlash malakalarini ishlash malakalarni egallashga faol intilishlari, o'z - o'zini bilish va kasbiy jihatdan o'z - o'zini tarbiyalash bo'yicha chuqur ish olib borishga psixologik jihatdan tayyor bo'lishlari kerak. Barcha hollarda ham individual, ham guruhviy mashg'ulotlar boshlanishidan oldin pedagogik texnikani egallashning individual dasturi tuzib chiqilishi lozim. Bunday dasturni tuzish uchun avvalo pedagogik texnika malakalari shakllanishining boshlang'ich darajasini aniqlab olish zarur. Biroq tajribaning ko'rsatishicha, odatda, mazkur bosqichda faqat malakalar haqidagina emas, shu bilan birga dastlab avtomatlashtirilgan (ta'limni boshlash vaqtiga kelib) ko'nikmalar haqida ham borishi mumkin ekan. Bular masalan, nafas olish va ovozning tabiiy yo'lga qo'yilishi, to'g'ri talaffuz, bundan oldingi tarbiyaning natijasi bo'lgan savodli, ifodali nutq, mimik va pantomimik aniqlik va boshqalar bo'lishi mumkin. Bunday ko'nikmalarning mavjudligi pedagogik texnika malakalarini shakllantirishni ancha

³ Махкамов М. «Бўлажак тарбиячиларнинг педагогик мулокат маданиятини шакллантириш» номзодлик диссертацияси. Т., 2005.

osonlashtiradi.

Oliy o'quv yurtlaridagi kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagogik texnikani egallash guruh rahbariga o'zining kasb yo'nalishining boshlanishidayoq ko'pgina xatolardan holi bo'lishda, talabalarga ta'lim-tarbiya berishning yuksak samaradorligiga erishishda yordam beradi.

Guruh rahbari vaziyatlarning haddan tashqari xilma - xilligi pedagogdan ijodiy xulq - atvorni talab qiladi. Pedagogik texnika pedagog malakalarining eng yaxshi ijodiy xulq atvoriga, boshqacha qilib aytganda, har qanday pedagogik vaziyatda tarbiyalanuvchilarga samarali ta'sir ko'rsatishga yordam

beradi. Pedagogik texnika malakalari tarbiyachining individual - shaxsiy xususiyatlari bilan chambarchas bog'liqligi faqat bu malakalarning individual tusda bo'lishi emas, balki ularning shakllanishi va rivojlanishi pedagog shaxsiga ta'sir ko'rsatishda ham nomoyon bo'ladi.⁴

Pedagogik texnikaning yana muhim xususiyatlaridan biri pedagogning ma'naviy va estetik nuqtai nazarlari tarbiyalanuvchilarga yanada to'laroq ochib beriladi. Agar pedagogning nutqi qashshoq va tartibsiz bo'lsa, agar u bo'lar bo'lmas sabablar bilan o'z hissiyotlariga erk bersa, didi past, estetik jihatdan omi bo'lsa, u holda "eng to'g'ri" so'zlar ham, eng "kerakli" tadbirlar ham tarbiyalanuvchilarning na aql - idrokiga, na hissiyotiga ta'sir qiladi.

Pedagogik texnika to'g'risida aytilganlarning hammasi har bir guruh rahbari uchun bu texnikani tashkil etuvchi malakalarni egallash nihoyatda zarurligini ochiq - oydin ko'rsatib turibdi va bu pedagogik vaziyat hamda san'at bilan bog'liq. Chunki inson o'zining har bir qadamini oldindan ko'rishi, rejalashtirishi amalda mumkin bo'lmaydi. Guruh rahbarining mehnati - bu behad izlanish va azob - uqubatli kechinmalar, ilhom va betakror nurlanish oni, ko'pdan ko'p kundalik ishlar, hafsalasi pir bo'lish va shaxslar birgalikda boshdan kechirilgan

quvonchdan qanoat hosil qilishdir. Pedagogik san'at - bu qandaydir qo'l bilan tutib

bo'lmaydigan, fahm - farosat bilan amalga oshiriladigan mahorat mahsulidi.

Pedagogik mahorat fahm - farosat va bilimlarning, chinakam ilmiy, tarbiyadagi qiyinchiliklarni yengishga qodir bo'lgan nufuzli rahbarlikning, shaxslar qalbining qandayligini his qilish mahorati, ichki dunyosi nozik va zaif bo'lgan shaxsiga mohirlik bilan avaylab yondoshishi, donolik va ijodiy dallilik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziyaga bo'lgan qobiliyat majmuasidir. Pedagogik mahoratga pedagogik bilimlar, fahm - farosat bilan bir qatorda pedagogik texnika sohasidagi malakalar ham kiradiki, ular tarbiyaga ozroq kuch sarflab, ko'proq natijalarga erishish imkonini beradi. Pedagogdan odatdan tashqari kuch - g'ayratni, qat'iyatni, tirishqoqlikni, tadqiqotlar olib boirishga intilishni, yangi vaziyatga, yangi jamoaga kirish qobiliyatini, samimiyatni, to'g'rilik va halollikni, o'tkir aql

⁴ Махкамов М. «Бўлажак тарбиячиларнинг педагогик мулокат маданиятини шакллантириш» номзодлик диссертацияси. Т., 2005.

idroknini, o'z topilmalarining qimmatini aniqlash qobiliyatini talab qiladi..

Tarbiyaning maqsadlari, vositalari va natijalari o'rtasida, shuningdek, tarbiyalanuvchi va tarbiyachi tafakkuri, motivlari o'rtasida g'oyat murakkab bog'liqlik bor. Kattalarning maqsadi, odatda, yoshlarning maqsadlari (hatto strategik maqsadlari) bor. Talabaning rivojlanish mantiqi, uning tafakkuri, harakatlari bitta nuqtai nazarda, tarbiyachining mantiqi boshqa nuqtai nazarda turishi mumkin. Bunday variantda hech qanday tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish bo'lmaydi.

Pedagogik faoliyatda vositalar, maqsadlar va natijalarning nisbatini doimo tahlil qilib borish zarur. Ular uzviy birlikni tashkil etadi, bir - biriga bog'liq bo'ladi va alohida tarzda amalga oshirilmaydi. Maqsadni amlga oshirish usuli - bo'lajak natijadir. Natija yangi vositalarni tanlash, yangi maqsadlarni qo'yish uchun amaliy asos hisoblanadi. Tajribada ma'lum darajada qo'llanilgan har qanday vosita natija beradi, hatto biror sababga ko'ra maqsad aniq ifodalanmagan bo'lsa ham natija bervermaydi.

Tajribada mavjud bo'lgan pedagogik vositalarni ikkitasining talqini:

1 .Har qanday pedagogik vosita hamisha bir qator boshqa vositalar, usullar, shartlar bilan bog'liq bo'ladi, ular pedagogik jarayoning muayyan bosqichida ta'sir ko'rsatish natijasini belgilab beradi. Masalan, rag'batlantirish bir xil jarayonlarni tezlashtirish va boshqarishga to'siqlik qilish, turli salbiy va ijobiy hissiyotlarning turli - tuman ko'rinishlarini vujudga keltirishi mumkin.

2 .Ayrim vositalarni qo'llanish pedagogning ular ta'sirini, mumkin bo'lgan o'zgarishini anglash qobiliyatlariga butunlay bog'liq bo'ladi. jamoa muomala sharoitida vositalarni qo'llash minut sayin o'zgarib turadigan vaziyatni hisobga olish zarurligini taqazo qiladi.

Amaliy faoliyatda esa vositalar, maqsadlar va natijalar dialektikasi ovozlari shovqini, g'oyat turli - tuman ehtiyojlar va da'volarning avj olishi bilan to'la bo'ladiki, bu barcha jonli manzara doimo bir kishining - pedagog tarbiyachining diqqat markazida bo'lishi lozim. Agar pedagogik san'at haqida gapirganda, uning asosiy ko'rinishlari - talabalarga umidbaxsh faraz bilan yondoshish, talab va ishonchning birligi, uning shaxsga avayla munosabatda bo'lish, uni hurmat qilishdan iborat bo'lishi mumkin.

Pedagogik umidbaxshlik hatto eng qarovsiz talaba ham o'zida ko'pgina ijobiy narsalarga egadir, degan ishonchga asoslangan.

Pedagogik mahorat o'ziga talabalar haqidagi, ularning psixologiyasi to'g'risidagi, ta'lim muassasasi haqidagi, ta'lim - tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmuni, metodlari haqidagi keng bilimlarni qamrab oladi. Bu bilimlar umumiy pedagogik madaniyani tashkil etadi, pedagog, tarbiyachi bu madaniyatni egallamasa, hech vaqt o'z ishining chinakam ustasi bo'la olmaydi, eski usuldan, bir qolipdagi tayyor andazalarni ishlatishdan nariga o'tmaydi.⁵

⁵ Niyozov G., Axmedova M. Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlari. T.: NOSHIR, 2011

Biroq zamonaviy guruh rahbariga birgina umumiy madaniyatning o'zi kifoya qilmaydi - maxsus bilimlar va malakalar: talabalarni kuzatish, ularning o'sishidagi muhim narsalarni aniqlay olish, bu muhim narsalarni jamiyatda vujudga kelgan asosiy ijtimoiy g'oyalar bilan taqqoslash, ularni rivojlantirish yo'llari va usullarini aniqlash, turli vositalar, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish usullarining o'zaro bir - biriga o'tish dialektikasini chuqur tahlil qilish, pedagogik izlanishlar va yutuqlarni ilmiy jihatdan bir sistemaga solish malakalari zarur bo'ladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, guruh rahbarining o'quvchilarni o'rganishga yo'naltirilgan faoliyati zamonaviy ta'lim tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir o'quvchining individual xususiyatlarini, psixologik holatini, ijtimoiy muhitini chuqur o'rganmasdan turib, samarali tarbiyaviy va pedagogik ishlarni olib borish mushkul. Mazkur faoliyatni tizimli va ilmiy asosda tashkil etish, guruh rahbarining kasbiy malakasi, psixologik bilimlari va metodik tayyorgarligiga bevosita bog'liqdir. Shuningdek, guruh rahbari faoliyatida innovatsion texnologiyalar, zamonaviy diagnostik metodlar va oilaviy hamkorlikdan foydalanish uning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Avloniy. A. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O'qituvchi, 1992
2. Abduraxmonov. A. Axloqiy tarbiya va milliy qadriyatlarimiz – Sharq yulduzi. 1990. №12-164-173-b.
3. O'zbekiston Yoshlar tashkiloti Nizomi. Toshkent. 10-b.
4. O'zbekiston Respublikasi Boshlang'ich tashkelotlar uchun ta'sis va me'yoriy hujjatlar to'plami. Toshkent.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq talimi vazirligi Qashqadaryo viloyati pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti. Z.Boqieva Etakchi-raxbar, do'st va tarbiyachi. 2011-yil
6. Pedagogika. // M. To'xtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. - T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.